



ANDIJON TARIXI XUSUSIDA AYRIM MA'LUMOTLAR

Akramov Muhammadali Baxodirjon o'g'li

*Jizzax davlat pedagogika universiteti Tasviriy san'at va
muhandislik grafikasi yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Farg'ona vodiysining markaziy shaharlaridan biri sanaluvchi Andijon shahri, uning shakllanishi, etimologiyasi, davlatchilik tarixi tutgan o'rni haqida so'z boradi. Andijon shahri haqida atroflicha ma'lumotlar mavjud adabiyotlar tahlili asosida yoritib berildi.

Kalit so'zlar: Farg'ona vodiysi, Andijon shahri, Andi, Adoq-yakun, A. Muhammadjonov, Boburnoma, Andijon va Aysi, Amir Temur va temuriylar davri, Xonliklar davri.

Farg'ona vodiysi ham O'rta Osiyoning qadimdan odamlar istiqomat qilgan manzillardan hisoblanadi. Miloddan avvalgi I minginchi yillar o'rtasida ayni shu yerlarda dastlabki shahar davlati vujudga kelgan. Parkana (Dovon) ana shunday davlat birlashmalaridan bo'lib, poytaxti Ershi bo'lgan. Arxeolog olim V.M.Masson shu yerlar iqtisodiy madaniy hayoti haqida fikr yuritib, bu yerda qo'rg'oshin, metal kabi rudalari ko'p bo'lganligini ta'kidlab [To'pchiyev. 2024. 41-b.], bu mahsulotlar Turkmaniston, Buxoro yerlaridagi jamoalar bilan tovar ayriboshlash asosini yaratganligini e'tirof etadi.

Farg'ona vodiysida ko'plab mashhur shaharlar bo'lib, ular orasida Andijon shahri o'zgacha o'rin va e'tibor markazida turadi. Shahar toponomiyasi haqida turli tadqiqodlar, har xil fikrlarni ilgari suradilar. Masalan, ba'zi manbalarda bu nom "andi", "azoq" urug'lari nomidan olingan deyiladi. Ammo, hozirgi kunda ko'plab olimlar yakdil fikrga kelishdi. Jumladan akademik olim A. Muhammadjonov fikrlariga ko'ra, "Andijon" nomi so'g'dcha "adoq", ya'ni "yakun", "oxir" va "kon" – "ariq", "soy" so'zlarining birlashuvidan kelib chiqqan [www.wikipedia.org. internet sayti].



Ya'nikim "Adoqkon" degani "Soyning oxirida joylashgan yer" ma'nosini anglatadi. Bu faraz hozirda o'z tasdig'ini topmoqda. Bilamizki, Andijon shahri Andijonsoy yoqasida, qadimgi Oqbo'yra soyi oxirida joylashgan.

O'z navbatida bu hududda amalga oshirilgan tadqiqotlarga to'xtalsak, Andijonning Ark qismida va Shahristonda olib borilgan arxeologik qazishlar natijasida VII-VIII asrlarga oid buyumlarning topilishi uning O'rta Osiyodagi ko'hna shaharlardan biri ekanligini tasdiqlaydi. O'rta asrlarda shahar Arki mudofaa devorlari bilan o'rab olingan[Davletov. 2022. 67-68-b.]. Arab xalifaligi davrida Andukon deyilgan.

Andijon ilk bor yozma manbalarda X asr arab sayyoxlari Ibn Havqal va Muqaddasiy asarlarida Andukon shaklida qayd etilgan. Andijon shahrining siyosiy tarixi, O'zbek davlatchiligi tarixidagi faoliyati haqida so'z yuritadigan bo'lsak, XI asrda shahar Qoraxoniylar hukmronligi ostiga o'tgan. XI-XII asrlarda Farg'ona vodiysining yirik savdo va hunarmandchilik markaziga aylangan. Shahar mo'g'ullar istilosi davrida vayron etilgan va manbalarda qayd etilishicha, XIII asr oxirlarida mo'g'ul xonlari bo'lmish Tuva va Xaydu tomonidan qayta tiklangan.

Andijon XIV asr 70-ylarida Farg'ona vodiysi bilan birga Amir Temur davlati tarkibiga kirgan. XV asr ikkinchi yarmidan Amir Temur va temuriylar davlatiga qarashli Farg'ona viloyatining poytaxti bo'lgan. Ayniqsa Umarshayx Mirzo va uning o'g'li Zahiriddin Muhammad Bobur davrida shaharda xo'jalik, fan, madaniyat rivoj topgan[O'rta Osiyo me'moriy yodgorliklari. 2011. 97-98-b.].

Andijon tarixi bo'yicha yetarlicha ma'lumotni shubhasiz Zahiriddin Muhammad Boburning shoh asari Boburnomadan olamiz. Boburnomada unga quyidagicha ta'rif beriladi: „...Oshlig'i vofir, mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi bo'lur. Qovun mahalida poliz boshida qovun sotmoq rasm emas... Andijon noshpotisidan yaxshiroq noshpoti bo'lmas. Movarounnahrda Samarqand va Kesh (hozirgi Shahrisabz) qo'rg'onidin so'ngra mundin ulug'roq qo'rg'on yo'qtur. Uch darvozasi bor... To'qqiz tarnov suv kirar. Bu ajabdurkim bir yerdan ham chiqmas... Eli turqdur“[www.wikipedia.org. internet sayti].



Andijonning Xonliklar davri tarixiga to'xtalsak, shahar 1504-yildan shayboniylar qo'l ostiga o'tgan va XVIII asr boshlariga qadar Buxoro xonligi tasarrufida bo'lgan. Keyinchalik, Andijon shahri 1710-yilda Qo'qon xonligi tarkibiga kirgan va Rossiya Qo'qon xonligini butunlay bosib olguniga qadar ya'ni, 1876-yilgacha Andijon bekligining qarorgohi bo'lgan [O'rta Osiyo me'moriy yodgorliklari. 2011. 98-b.]. Shaharda mahalliy xalqdan tashqari Sharqiy Turkiston (Sinszyan)dan kelganlar ham yashagan.

Shahar o'zining hunarmandchilik buyumlari, ip va ipak gazlamalari bilan shuhrat qozongan. XIX asr o'rtalarida Andijon 4 dahaga bo'lingan edi. Har bir dahaning qozisi, mingboshisi bo'lgan. Dahalar oqsoqol boshliq mahallalarga bo'lingan. 1877-yilda shaharga yondosh Xoqon (Xaqan) qishlog'i aholisi ko'chirilib o'rnida rus bosqinchilari uchun yangi shahar qurila boshladi [www.wikipedia.org. internet sayti].

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, Andijon Farg'ona vodiysining bir qator markaziy shaharlari qatori Markaziy Osiyoning taniqli shaharlaridan biri hisoblanadi. Andijon shahri O'zbekiston tarixida faoliyat ko'rsatgan bir qator davlatlar tarkibida ma'muriy markazlarning poytaxt maqomidagi shahar vazifasini o'tagan. Bu shahar haqidagi asosiy ma'lumotlar Boburnomada keltirilgan bo'lib, shahar O'zbek davlatchiligi tarixida munosib o'rin egallagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Davletov S., Abdullayev M. O'zbekistonning me'moriy yodgorliklari tarixi. Toshkent. 2022.
2. To'pchiyev U. S. O'rta Osiyo me'moriy yodgorliklari. Jizzax. 2024.
3. O'rta Osiyo me'moriy yodgorliklari – Vatanimiz tarixini o'rganishning moddiy manbalari (mutaxassis talabalar uchun fan majmuasi). Samarqand. 2011.
4. www.wikipedia.org. internet sayti